

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

NAVOIY IJODIDA SAXOVAT TUSHUNCHASI

Sayfiddin Rafiddinov

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

*O‘zbekiston FA O‘zbek tili, adabiyot va folklori
institutining katta ilmiy xodimi*

SAXOVAT arabcha so‘z bo‘lib, saxiylik, qo‘li ochiqlik, jo‘mardlik; bazl, himmat, karam kabi ma’nolarini bildiradi. Islom dinida, xususan, Qur’oni karimda infoq-ehson qiluvchilarning ajri haqida ko‘p oyatlar nozil bo‘lgan. Hadisi shariflarda ham ehson, muruvvat, himmat, sadaqa kabilar maqtaladi, ularga tashviq qilinadi. Shunday muborak hadislardan birida Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom :”
“*Saxovat – bir daraxt. Uning ildizlari jannatda, shoxlari dunyoga tushib turadi. Kimki uning shoxidan ushlasa, ildizlari (jannat) sari tortadi...*”, deb marhamat qilganlar. Boshqa bir hadisi sharifda: “*Beva va misinga g‘amxo‘rlik qiluvchi kishi Alloh taolo yo‘lida sa‘y-harakat qiluvchi yoki kechalari bilan toat-ibodat qilib, kunduzlari ro‘za tutuvchi kishi kabidir*”, deb marhamat qilinadi. Shubhasiz bu kabi hadisi shariflar insonlarni saxovat qilishga undaydi.

Shu bois ham Sharq adabiyotida xayr va saxovat insonni ulug‘lab, ikki dunyoda aziz-u mukarram qilishi haqida alohida asarlar yozilgan.

Insoniy barkamollikning boshqa barcha sifatleri kabi, saxovat ham o‘tmish adabiyotimizda bosh axloqiy mavzulardan biri bo‘lib kelgan. Xususan, Navoiy ijodida buning mukammal badiiy talqinlariga duch kelamiz. Eng muhimi, shoir saxovatni bevosita iymon bilan, inson hayoti bilan bog‘lab, adabiy - badiiy yo‘sinda tushuntirib beradi. Zero, xalqimiz naqliga ko‘ra ham aqlning qadri odob bilan oshadi, boylik qadri – saxovat bilan. Saxiylik ezgulikni yuksaltiruvchi, do‘stlarning ko‘payishiga va muhabbatning ziyoda bo‘lishiga imkon yaratuvchi xususiyat bo‘lib, insoniyat uchun ulug‘ fazilatlardan biridir.

Mudom xalq manfaatlari uchun qayg‘urgan NAVOIY ham saxovatning el-yurt farovonligi uchun naqadar zarurligini anglagan holda buning targ‘ibi uchun o‘z zamondoshlarini misol qilib keltiradi. Jumladan, Sayyid Hasan Ardasheriga atab yozgan masnaviysida uni vafoni kasb, saxoni o‘ziga doimiy odat qilib olganini, muruvvat turmush tarziga hamsafar bo‘lganin alohida ta’kidlab ko‘rsatadi:

*Vafo anga pasha, saxo anga fan,
Vafo-vu saxo koni Sayyid Hasan.
Vafo azm aylarda bo‘lmish magar
Saxov-u muruvvat anga hamsafar.*

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Shoir “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”da esa rindlarning saxiyligidan bahs qiladi: “Va rindliq tavrida necha nima alarga dast berib erdikim, bu toifaning ozig‘a muyassar bo‘lub erkan; biri saxoyi zotiykim, anda takalluf bo‘lmag‘aykim, bazl va ziyofat vaqtida oz va ko‘pning tafovuti ko‘runmag‘ay va o‘zidin elga ko‘p nima oz ham ko‘runmagay va eldin o‘ziga juzviy nima bag‘oyat ko‘p va kulliy ko‘runub, birga o‘n evaz yetkururning fikrida bo‘lg‘ay”.

“Holoti Pahlavon Muhammad”da esa Pahlavon Muhammadni “...mijozida bazl-u saxo g‘olib va tab‘ida shafqat-u raho mufrit”, deya ta‘riflaydi.

Yoki “Majolis un-nafois” tazkirasida Sulton Mas‘ud Mirzoga ajratilgan fiqrada uning tabiatidan bahs eta turib, saxovat uning xulq-atvoriga aylanib ketgan, deydi: “Vafo va diljo‘yluq aning shiori, saxo va darveshxo‘yluq aning atvori”. Xuddi shuningdek, ulkan tarixchi, “Zafarnoma” kabi salmoqli asarning muallifi Sharafiddin Ali Yazdiy haqida ham “Va Mavlono himmat va bazl bobida ta‘rifdin mustag‘niy erdilar” deydi. Demak, tilga olingan shaxsning himmati yuksak bo‘lganki, shoir uni juda oliy maqtovlar bilan tilga oladi.

Alloh taolo o‘z kalomida qiyinchilik kunlarida sabr qilgan, ibodatlarda qoim bo‘lgan, muhtojlarga yordam bergan va chiroyli xulqlarini saqlab qolganlarga oxirat saodatini va‘da qiladi: *“Parvardigorlarining roziligini istab, (turli mashaqqatlarga) sabr qilib, namozlarini barkamol ado etgan va Biz rizq qilib bergan narsalardan xufyona va oshkora ehson qilgan hamda yomonlikka yaxshilik qaytaradigan zotlar, aynan o‘shalar uchun dunyo oqibati (jannat) bordir”.* (Ra‘d surasi, 22-oyat).

Navoiy bir qit‘asida ehson qilishini aytib, ehson qilgan odamni er va aytmay ehson qilgan odamni esa chinakam er, deydi. Ammo:

Ne deb, ne bersa bilgil ani xotun,

Debon bermasni xotundin dag‘i kam.

Agar kishi ehson qilishini aytmasa ham ehson bermasa ham u xotindir. Ehson qilishini aytib, lekin ehson bermasa odam u xotindan ham battardir. Qit‘ada Navoiy xotinlarni kamsitayotgani yo‘q. Odatda xotinlar ro‘zg‘orim deydigan va qattiqroq bo‘ladi. Qolaversa, Sharqda erkakni xotinga tenglashtirish o‘ziga xos tahqirlash sanalgani uchun xasis, baxil odam xotinga tenglashtirilayapti.

Navoiy boshqa bir qit‘asida esa shoir hukmdorlarni ogohlikka chaqiradi: saltanatning doimiyligini, barqarorligini ta‘minlovchi omillardan biri saxovat ekanligini qat‘iy ta‘kidlaydi:

Kim istasa saltanat, saxodur anga shart,

Har va‘daki aylasa vafodur anga shart.

Kim faqr talab qilsa, fanodur anga shart,

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Ollig‘a nekim kelsa, rizodur anga shart.

“Favoyid ul-kibar” devonidagi qit‘asida esa Navoiy hadis ma’nosiga muvofiq olguvchi qo‘ldan berguvchi qo‘l, ya’ni saxiy qo‘l yuqori turadi, u sharafga loyiqdir, deydi: “...saxo so‘zikim, saxiyg‘a mujibi zabardastlik va soyil ilgiga mujibi zerdastlikdur:

Kishiki, ilgini ustun tilar, saxo qildik,

Qo‘lida zahri halohilu gar Xizr suyidur.

Ki, berguchi agar o‘lsun gadoyu olg‘uchi shoh,

Berur ilik yuqoriyu olur ilik quyidur.

Diqqat qilinsa, Navoiyning saxovat bilan bog‘liq ko‘p fikr-qarashlari do‘sti – Sulton Husayn bilan bog‘langan. Shoir deyarli bir nechta asarlarida do‘stining muruvvatda, himmatda tengsizligini ulug‘laydigan satrlar bitgan. Ayniqsa, uning Sulton Husaynni “Saxovat havosining abri guharbori” deb atashi e’tiborga loyiq. Xususan, shohning saxiyligini quyoshning olamga zarfishon – nur sochishiga muqoyasa etadi. Ya’ni oliyhimmat shoh saxovat bilan qo‘l ochganida, olamga beminnat “zarfishonlig” qilayotgan quyoshning “sarpanjalari minnatini” tortmaydi. Quyosh nurlari ham uning saxovati oldida qadrsiz bo‘lib qoladi.

Chun saxovat ilgi ochsang, dahr chekmas zarraye

Zarfishonlig‘da quyosh sarpanjasining minnatin.

Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonida ham Sulton Husayn saxiyligini ta’riflab yozganlari odingi satrlarning uzviy davomidek taassurot uyg‘otadi: bu o‘rinda ham ehtiyojmandlarga mol ulashgan shohning qo‘llari falakda zarrin nurlarini sochuvchi oftobga qiyoslangan, hatto shunchalik ko‘p oltin-kumush tarqatganidan ilgi (qo‘li) ganjrez – oltin xazina to‘kuvchi narsaga aylanib qolgandek.

Ilgi saxovatdin o‘lub zarfishon,

Lutfi talattuf bila gavhar fishon.

Ko‘ngli bilik gavharidin ganjxez,

Ilgi saxovat kafidin ganjrez.

“Saddi Iskandariy” dostonida esa Sulton Husaynni karamparvarlikda tog‘u tosh ichida yashiringan kongga o‘xshatadi. Davomidagi qaydlardan shohning har vaqt maqsadi xazinasidan elga ehsonlar ulashish bo‘lgani anglashiladi.

Saxosi chu zohir bo‘lub bahru kon,

Tutub tufrog‘-u tosh ichinda makon...

Qo‘lin bahr ila kon misoli degil,

Saxodin alar tavri xoli degil.

Ushatmog‘ta zoyi‘ qilib ranjini,

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Murodi saxo aylamak ganjini.

Chunonchi, “Layli va Majnun” asarida ham Sulton Husayn saxovati quyoshga o‘xshatiladi va tabiatida shijoat borligi uchun dunyo unga itoat etsa, ajab emas, deydi. Tarixga boqqanimizda ham Husayn Boyqaro juda ko‘p jangu jadal qilgan va shijoatli odam bo‘lgan. Bobur “Boburnomada” temuriylardan hech kim u kabi ko‘p qilich chopmaganini alohida ta’kidlaydi. Ulug‘ mutafakkir quyidagi misralarida ham Sulton Husaynning jasur va abjirligi tufayli el-yurt dushman hujumidan omondaligi-yu, himmat-u saxovati sababidan shukronada ekanligini eslatib qo‘yadi:

Ulki amniyat vujudidindurur,

Xalq shokir bazlu judidindurur.

E’tibor berilsa, Navoiy ko‘p asarlarida Sulton Husaynni tilga olgan va saxovat, bazlu ehsonini maqtagan. Bu bilan ikki narsani maqsad qilgan. 1. Sulton Husaynning haqiqattan saxiyligini e’tirof etish. 2. Sultonning saxovatpeshaligini boshqa temuriy shahzodalarga ibrat qilib ko‘rsatish. Umuman, Navoiy shoh qanday bo‘lishi kerak degan savollarga javob bergan va albatta saxovatini maqtagan yoki saxiy bo‘lishi lozimligini ta’kidlagan.

Ulug‘ adib buning yorqin bir misolini “Saddi Iskandariy” dostonidagi Iskandar misolida ko‘rsatib beradi. Iskandarning najib xislatlarini ta’riflagan ulug‘ shoir to‘g‘ri siyosat yurgizish bilan birga saxovat ham podshohlikning asosiy talablaridan biri ekanligiga e’tibor qaratadi:

Uluqqa uluqcha ato aylasa –

Kichikka kichikcha saxo aylasa.

Saxo shohdin elga matlub erur,

Siyosat ham o‘z o‘rnida xo‘b erur.

Darhaqiqat Navoiy katta mahorat bilan saxiyligini va donoligini ta’riflagan obrazlardan biri, Iskandar edi. Dostonda uning siyrati bilan bog‘liq chizgilarda behad muruvvatli bo‘lgani anglashiladi:

Diqqat qilsak, Navoiyning deyarli barcha dostonlaridagi bosh qahramonlar uzoq moziyda yashagan shaxslar bo‘lsa-da, barisi bir maqsadni ko‘zda tutadi: temuriy hukmdorlarga o‘rnak ko‘rsatish, ogoh etish, nasihat qilish, ularni dostonlarida orzu qilib yaratgan qahramonlari singari davlatni boshqarishlari edi. Shuning uchun “Saddi Iskandariy” dostonida bir qator hakimlar va faylasuflar timsoliga duch kelamiz. Ular Iskandarga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatish hamda unga nasihatnomalar bitish bilan e’tibor qozonadi va keyingi podshohlar uchun yo‘riqnomalar yozgandek taassurot o‘yg‘otadi.

Iskandarga “Xiradnoma” bitgan yetti donishmanddan biri Hurmus shohga

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

aynan saxovat shartlarini tushuntiradi. “Shoh xalqning e’tiborini qozonishi uchun saxovatli bo’lmog‘i, lekin maqtanish uchun saxovat qilmasligi, yengiltaklik bilan qilingan sarfu xarajatlar ham saxovatga kirmasligi, birov tilagan, hojat so‘ragan paytda saxovat qilishni ham “saxo ahli” saxovat demasligini aytadi. Saxovatni basirat ko‘zi bilan nazar qilib, joyiga va tartibiga ko‘ra sarflash kerak. Avvalo, askarlarni so‘ngra ishchi mardikorlarni, so‘ngra xalqqa ozmi-ko‘pmi in’om mukofot berishi lozim:

*Berur luqma angakim, och erur,
Olur ko‘nglin oningki – muhtoj erur.
Mubohot ila o‘zin etmas aziz,
Agar yuz tuman bersa, gar bir pashiz.
Ne sarf aylar o‘lsang, bu nav’ ayla sarf
Ki, bu sarf erur asramoqtin shigarf».*

“Hayrat ul-abror” dostonining 20 maqolotidan biri – 5-si aynan shu karam (Yaxshilik, olijanoblik, ehson, marhamat, saxiylik) vasfi va saxo ta’rifiga bag‘ishlangan. “Karam” va “saxo”, o‘zaro ma’nodosh so‘zlar bo‘lgani uchun ham ulug‘ mutafakkir bu so‘zlarni yonma-yon yoxud birgalikda qo‘llaydi..

Navoiy maqolotda karam va saxovat qilgan kishini maqtaydi, bu ikki xislatga tegishli bo‘lgan shart va vazifalarni, to‘g‘ri va noto‘g‘ri jihatlarini ko‘rsatib, foydali tavsiyalarni berish bilan birga, karamli va saxiy kishini avvalo, shukr qilishga chaqiradi:

*Buki sanga Tyengri ato ayladi,
Qism karam birla saxo ayladi.
Har sari mo‘jisingga bir til bo‘lub,
Bo‘lmas aning shukr ila uzrin qo‘lub.
Judu saxovat chog‘i buxl etmagil,
Shukr zamoni dog‘i buxl etmagil.*

Ya’ni sanga Tangri ato qilgan bu ikki narsa ikki qism – karam va saxiylikka bo‘linadi. Tanangdagi har bir tuk bir til bo‘lib, Xudoga shukr va minnatdorchilik bildirganda ham hammasini ayta olmaydi. Ehson va saxovat ko‘rsatish vaqtida baxillik qilma, Xudoga shukr bildirish chog‘ida ham tanti bo‘l!

Darhaqiqat Navoiy nazdida saxovat ham karam ham Alloh tarafidan in’om etilgan bir ne’mat. Modomiki, bu ikki ne’matni Allohning o‘zi bandasiga ravo ko‘ribdimi, buning shukronasi bo‘lishi, ya’ni baxillik qilmaslik kerak. Alloh taolo Qur’oni karimda: “*Alloh yo‘lida mollarini ehson qiluvchilar (savobining) misoli go‘yo bir donga o‘xshaydiki, u har bir boshog‘ida 100 tadan doni bo‘lgan 7 ta boshogni*

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

undirib chiqaradi. Alloh xohlagan kishilarga (savobini) yanada ko‘paytirib beradi. Alloh (karami) keng va bilimdon zotdir” (Qur‘oni karim. “Baqara” surasi, 261-oyat) deb marahamt qilgan. Alloh taolo bu misol bilan 1 ta xayrli ish uchun 1 ta emas, to 700 ta va undan ortiq savob ato etishi mumkinligini bildirmoqda.

Biroq saxovat shunday nozik narsaki, kishi xushyor bo‘lmasa, saxiylik deb qilgan amali baxillik hisobiga o‘tib ketishi hech gap emas. Shoir saxovatni yaltiroq dur, ya‘ni duri serobga o‘xshatadi. O‘quvchiga uni xor qilib, baxillar safiga o‘tib qolmaslikni uqtiradi. Navoiyning fikricha, saxiylik deb, isrofga, riyoga yo‘l qo‘yishning baxillikdan hech farqi yo‘q:

*Necha saxo ashrafi avsofdur,
Muft agar aylasang, isrofdur.*

Binobarin, Navoiyning nazarida oltin – ko‘p aziz narsa, lekin undan oyoqni band qilish uchun kishan yasalgan bo‘lsa, kimga keragi bor?!

Shu tariqa shoir hayotda o‘zini saxiy sanagan 1-toifani ta‘riflab, ular yo‘lining xatoligini ko‘rsatib beradi. O‘zini saxiy sanagan 2-toifa ham bor. Ular isrofchi ham emas. Lekin bundaylar o‘zi shundoq ham qorni to‘q bo‘lganlarga dasturxon yozadilar, to‘nga zor, yupun-yalang‘ochlar qolib, boylarga chopon kiydiradi, yuz yilqisi borga – ot, yuz ziragi borga – kumush taqdim etadi:

*Oni dema saxokim, kishi –
Nechaki isrof emasdur ishi.
... Yoyar anga sufraki, ul och emas,
Berur anga to‘nki, yalang‘och emas.
Ot anga tortarki, yuz yilqisi bor,
Siym anga byerurki, yuz ilg‘isi bor.*

Bundaylar xuddi la‘l koni bo‘lmish Badaxshonga – la‘l, ziraning makoni bo‘lmish – Kirmonga zira yuborgandek, quyosh nuriga foydasi tegsin deb, kuppu-kunduz kuni sham yoqqandek, qurib-qaqshab yotgan bog‘ga yog‘may, suvini shundoq ham qor bag‘rida yotgan toqqa yoki dengizga to‘kkan bulutdek ish qiladi. Demak, och qolib, to‘qqa, muhtoj qolib, boyga qayishadigan saxiyning himmati, himmat emas!

Isrofchining, och qolib to‘qqa berganning “saxovat”i qanchalik bema‘ni bo‘lsa, Navoiyga ko‘ra birovga berish uchun boshqadan olishga mukkasidan ketgan “saxovatchi” ham jamiyatning bir marazi hisoblanadi:

*Olmoq erur qasd anga bermak g‘araz,
Bu ham ul ikkidek erur bir maraz.*

Chunki bu yo‘l bilan mol-mulk yig‘ib, elga berish saxiylik hisobiga o‘tmaydi, uning olishi — koni ziyon, lekin, qiziqki, bermagidan ham biron foyda yo‘q.

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

O‘zini saxiy sanagan 4- bir guruh kishilar ham borki, ular faqat birov yalinib so‘rasagina, himmat qiladilar:

*Oni dog‘i dema saxiykim, kishi —
To tilamas, bermak emasdur ishi.*

So‘ragan muqtojjagina yordam berish xuddi o‘tni majburlab, uning taftida temir bilan toshni mumdek eritishga o‘xshaydi.

Saxovatning bulardan boshqa turi ham bor, bunday saxiylik uchun mol-dunyoga ega bo‘lish sira shart emas! Bunday odamning ahvoli yaxshimi yo yomon, boymi yo kambag‘al bo‘lishidan qat‘i nazar, u molu mansab tama’ etishdan yiroq. Chunki banday odamda qanoat, demakki, Alloh amriga itoat qilish bor:

*Har neki Haq bersa, qanoat qilur,
Ham neki amr etmish itoat qilur.*

Agar uning qo‘lida biror narsa bo‘lsa-yu, bir qo‘li qisqaning unga muhtojligini bilsa, undan borini ayamaydi. Uning saxiyligi shundaki, dengizdek bir boylikka ko‘zi tushsa ham, undan biror tomchi xomtama bo‘lmaydi, qo‘lida malhami bo‘lsa-yu, yara ko‘rsa, uni ayab o‘tirmaydi. Muhimi, muhtojni ko‘rsa, u hali so‘rab ulgurmasidan o‘zida borini unga beradi. Chunki bunday kishining ongida bir zo‘r tushuncha bor — u qo‘lidagi molni o‘ziniki emas, Allohnik deb biladi va shuning uchun uning eng kerakli o‘rnida ishlatilishini zarurat hisoblaydi, boshqaning ahvolini oshufta ko‘rsa, bor-budini berib bo‘lsa ham, uning dardiga malham bo‘ladi:

*Ulcha ko‘rar ilgida Haq molini,
Anglag‘ach oshufta birov holini.
Sarf qilur sud ila sarmoyasin,
Toki qilur hosil aning voyasin.*

Yana bir muhim jihat, Navoiy bunday odam yaxshiligini sira-sira minnat qilmaydi, deb alohida ta‘kidlaydi. Zotan yaxshilikni, infoq-ehsonni minnat qilish, Qur‘oni karimda ham mazammat qilingan. Masalan:” *U zotlarki, Xudo yo‘lida mollarini sarflaydilar, g‘ariblarga mollarini beradilar orqasidan minnat qilmaydilar, g‘ariblarga aziyat ham bermaydilar*.”(*Baqara, 262-oyat*). “*Ey mo‘minlar, molini riyokorlik bilan nafaqa qiladiganlar kabi sadaqalaringizning ajrini minnat va aziyat bilan botil qilmanglar. Vaholanki, ular (riyo bilan nafaqa qiluvchilar) Xudoga va oxiratga ishonmaydilar.*”(*Baqara, 264-oyat*).

Yuqoridagi mulohazalardan keyin shoir saxovat ko‘chasida adashib yurgan, baxillikdan beshbattar ishlarini ham saxiylik hisoblaydigan millatdoshlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat etadi va aytadiki, bugun gulni g‘unchadek tugma, chunki qiyomat kuni, baribir, uni ochishga to‘g‘ri keladi, axir, sadaf ming baxillik qilgani

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

bilan, uning ko‘ksini yorib, ichidagi durni oladilar-ku. Charx oltindek porloq quyoshni berkitgani uchun ham kechqurun jahon uning yuzini qora qilib tashlaydi. Quyoshning o‘zini oling. U kunduzi yulduzlar tangachalarini berkitib turgani uchun osmon kechga borib uning o‘zini yerga ko‘madi. Shunday ekanmi, bu dunyoda xasislik qilishning hech keragi yo‘q. hatto ko‘milgan xazinani qo‘riqlab yotgan ajdaho bo‘lsang ham, deydi shoir, bilgilki, bu asraganning ganji xun bahosi bo‘lib qolishi mumkin... Falak Bahromi bir kuni kutilmaganda kelib, seni qatl etadi-yu, berkitganing boyligingni oladi. Shuning uchun o‘z qoningga qo‘l yuvishning, o‘z joningga qasd qilishning ne ma‘nosi bor? Shunday ekan, xazinang eshigini och, boylıklaringni olib soch-u, lekin o‘z o‘rniga soch. Demak, boylīkni o‘z o‘rniga mos ravishda sarflashgina — saxovat! Shu sabab, toki tirik ekansan, saxovat urug‘ini ek! Chunki bugun nima eksang, ertaga — tongla, ya‘ni qiyomat kuni o‘sha ekkaningni o‘rasan:

Ne bu kun ekilsa, bu maqbul erur, —

Kim anga tong-la kuni mahsul erur.

Lekin gap nimani ekishda. Ekinning ham turi ko‘p. Eng yaxshi ekin esa — judu saxovat. Saxovatning eng zo‘ri esa — tama’ qilmaslik. Xo‘sh, dunyodagi yuksak karamli, ya‘ni saxovatli zot kim? Karam duriga daryo bo‘lgan bu zotni odamlar “Asadulloq” der edilar. Otiga saxovu karam xatm bo‘lgan bu zot: “Karam diram, ya‘ni pul berish emas, balki talab nimaligini bilmaslik, boshqacha aytganda, birovning qo‘lida pul ko‘rsa, undan tama’ qilmaslikdir”, — deb aytgan:

Xatm o‘lub otig‘a saxovu karam,

Dedi: “Karam — bermak emasdur diram.

Anda karamdurki, talab bilmagay,

Kimda diram bilsa, tama’ qilmagay”.

Ana shu tasvirlardan keyin Navoiy mashhur Xotami Toy va o‘tinchi chol haqidagi rivoyatni keltiradi. Unga ko‘ra, himmat va saxo ahlig‘a peshvo Hotami Toy birovning minnatini tortgandan ko‘ra, o‘tin terib, topgan maoshiga kun ko‘rishni avlo bilgan cholning himmatini ko‘rub, lol bo‘ladi va hikoyat shunday yakunladi:

Bazldakim lutfni qilmas xato,

Zohir etar bir yo‘li ikki ato.

Ma‘nosi: saxovat ko‘rsatgan kishi muomalada ham xato qilmasa, u bir yo‘la ikkita in‘om bergan bo‘ladi.

Navoiyning “Lison ut-tayr”asarida saxovat o‘rnida “Bazl” lafziga duch kelinadi. Aslida, Alloh taolo - o‘xshashi yo‘q karam sohibi bo‘lib, saxovat, himmat va muruvvat uning sifatlarida mujassam:

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Berdi nayson yomg‘urig‘a ul sharaf,

Kim guhar qozg‘ondi bazlidan sadaf.

Dostondagi “Tavhid vodiysi” ta’rifida Allohning karamidan bahs etilgan satrlar yuqoridagilarni to‘la tasdiqlaydi:

Ul edi degon o‘zi, berg‘on o‘zi,

Bazl aro sochqon o‘zi, tergon o‘zi.

Ma’lum bo‘ladiki, “bazl” lafzi ham himmat va saxoning ma’nodoshi sifatida keladi.

Temuriy shahzodalar orasida ayricha salohiyati bilan tanilgan Sulton Badiuzzamondagi eng yaxshi jihatlaridan biri – saxovat bo‘lganini Navoiy mamnuniyat bilan qayd etadi:

Saxo ravzasida gulafshon nasim,

Ato vardida ruhparvar shamim.

Vafo gulbunining ochuq vardi ul,

Saxo bahrining javhari fardi ul.

Mirzoni vafo bog‘ining gul sochuvchi nasimiga, atirgulning xush isiga, saxovat dengizining yagona javhariga tenglashtirishi shoirning zamondoshiga ochiq munosabatini, dunyoqarashini, orzu-istaklarini bir qadar namoyon etgan.

Navoiy asarlarining umriboqiyiligini ta’min etgan omillar shuki, u tasvirlagan obrazlar kishilik dunyosining eng qadimgi davrlaridan buyon ko‘pchilik tomonidan e’tirof etilgan voqea-hodisalarni tanlay bilish va o‘rnida murojaat etish, shu bilan birga go‘zal badiiy shakl berish va o‘quvchini diqqatini jalb eta olishidir. Jumladan, Xalilulloh – Allohning do‘sti degan nom ila sharaflangan Ibrohim (a.s.) ning mehmonnavozligi ma’lum. Shoir payg‘ambarning dasturxonini shunday ta’sirchan yo‘sinda ta’riflaydi:

Bulutdek saxoliq kerak mizbon,

Ki tengdur anga marz ila marzbon.

Mazmuni: “Saxovatda mizbon bulutdek bo‘lmog‘i lozim, zero, bulutga yer ham, yer egasi ham barobardir”.

Saxo yomg‘uri birla serob etar,

Ne serob, g‘arqi duri nob etar.

Umar (r.a.) butun Islom olamiga xalifa edi, uning bazl – saxovatli dasturxonidan butun aholisi to‘yar edi, ammo o‘zi ochlikni sezmaslik uchun qorniga tosh bog‘lab yurar edi.

Xoni bazlidan jahon ahli to‘yub,

Ul o‘zin to‘yg‘org‘oli kirpich qo‘yub.

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Navoiy saxovat haqidagi fikr-qarashlarini deyarli barcha asarlarida u yoki bu tarzda ifoda etar ekan, ma’lum bo‘ladiki, mutafakkir bu xislatga ega bo‘lishlikni juda zarur hisoblagan va hamisha o‘zi ham aytganlariga amal qilib yashash payida bo‘lgan.

Tabiiyki, Navoiyning yaxshi xulqlardan so‘z yurituvchi “Mahbub ul-qulub” asarida saxovat, karam haqida ko‘plab ohorli fikrlarga duch kelish mumkin. Mazkur asarning 93-tanbehida: “Har g‘aniyki tirikligida ehsonidin ko‘ngullarni shod qilmag‘ay, o‘lganidin so‘ng ani kimsa duo bila yod qilmag‘ay. Ehson tiriklikda yaxshi otdur, o‘lgandin so‘ng do‘zax azobidin najot”, degan hushyorlikka chorlovchi mulohazalar bor. Mazkur jumalarning mazmunini yanada teranlashtiruvchi va o‘ziga xos ma’no tashuvchi quyidagi qit‘a alohida e’tiborga molik:

Kishida barcha axloqi hamida,

Chu jam’ o‘ldi qo‘yarlari otin ehson.

Biri andin saxodur, bir muruvvat,

Bular gar yo‘qtur, inson ermas inson”, -

deydi. Qit‘ada muhim fikr aytilmoqda. Bir kishida barcha yaxshi xulqlar jamlansa, uning otini ehson deb ataydilar. Ehsonga aloqador ikki xususiyat borki, biri saxovat, biri muruvvat. Agar shu ikkisi kimda bo‘lmasa unday kishi inson emas!

Navoiyning saxovat haqidagi barcha fikr-qarashlarining qaymog‘i “Mahbub ul-qulub”ning “Saxovat va himmat bobida” deb nomlangan 11-tanbehida bayon etilgan: Unda jumladan shunday deyiladi:

“Saxovat insoniyat bog‘ining serhosil daraxti, balki u daraxtning foydali mevasidir. Saxovat odamiylik mulkining mavj urib turgan dengizi, balki u sermavj dengizning bebaho gavharidir. Saxovatsiz odam – yomg‘irsiz bahor bulutiga va hidi yo‘q mushki anbarga o‘xshaydi.

...Baxil jannatga kirmas, hatto, qurayshlarning sayyidi bo‘lsa ham va saxiy do‘zaxga kirmas, qora habash bo‘lsa ham. Saxiy go‘yo bulutdir, uning ishi xirmon-xirmon don, balki xazina boyligidir; baxil esa go‘yo chumolidir, don-dun terib, tashigani-tashigan”.

Keyingi satrlarda Navoiy “saxovat faqat himmat ahlida bo‘ladi”, deb himmatning ta’riflaydi. Uningcha, “... bu ulug‘ sifat pokiza kishilarga xos bo‘lib, “odam bir badan bo‘lsa, himmat uning joni”dir. Himmatlilardan olam ahli uchun yuz ming sharaf va shukuh yetishadi. Himmatsiz kishi – er sonida emas. Jonsiz badanni hech kim tirik demas.

Oliy himmat odam – balandparvoz lochin. Behimmat esa sichqon ovlovchi kalxatdir. Ulug‘ shoir keyingi satrlarida himmat ahlining darajasi balandligini ammo “saxiylikning darajasi bir necha barobar yuksak” ekani va qaysi o‘rinda, qanday holatlarda saxovat qilish lozimligini, saxovatning martabalari(darjalari) borligini

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

ta’kidlaydi:” Isrof qilish saxovat emas, o’rinsiz sovurishni aqlli kishilar saxiylik demaydilar. Halol molni kuydirganni devona deydilar, yorug‘ joyda sham yoqqanni aqldan begona deydilar. Maqtanish uchun mol bermoq – o’zini o’zi ko’z-ko’z qilmoq va bu bilan o’zini saxiy deb atash behayolik. Kimki xalqqa ko’rsatib ehson qilsa, u – pastkash, saxiy emas. Tilagandan so’ng berish ham saxovatdan emas, qistov natijasida bergandan ko’ra bermagan yaxshiroqdir. Bitta kulchani ikkiga bo’lib, yarmini och odamga berganni saxiy deb, o’zi yemay hammasini muhtoj odamga berganni axiy (oshna, birodar, do’st)¹ deb bilgin”

Navoiy mazkur kitobining 12-tanbehida esa saxovatni yanada qisqa ammo quyma jummalarda bayon qilib beradi: “Hunarlarni (yaxshilarni) topmoq yedirmoqdir va ayblarni yopmoq esa kiydirmoqdir.

Zarur vaqtda berilgan eski chopon va bo’z to’n – saxovat, bemahal berilgan zarbof chopon – yaramaslik. Taomim uvol bo’lmasin, desang – yedir, libosim eskirmasin, desang – kiydir.

Saxovat qilish yo’lini shu aytilgan gaplardan angla, ammo olijanoblik va mardlik rasmlari bundan bo’lakchadir”.

Navoiy bir o’rinda tama’ qilmaslikni ham saxovat deb biladi va bunday saxovat ahlini karim (karamli) desa, tamagir kishilarni laim (tuban, razil, pastkash) deb ataydi.

Payg’ambarimiz alayhissalom hadislarining birida:” **Barrik lo tubtilhu bil-manni** (Ezgulik qil, ammo uni minnat qilish bilan yo’q qilma), deb aytgan ekanlar. Ulug‘ shoir buni “Arba’iyn” asarida shunday tarjima qilgan:

*Juz judu saxo uyini manzil qilma,
Imsokni saxo yuziga hoyil qilma,
Qil yaxshiliqu demakni doxil qilma,
Minnat bila yaxshilig’ni botil qilma.*

Boshqa bir o’rinda “**As-samohu ribohun**” (Qo’li ochiqlik – foydadir) hadisi shunday izohlangan:

*Mol bazl ila sud agar tilasang,
Oqibat chun o’lum erur mavjud.
Asragon qolur, ulki bazl etting
Sanga hamroh borurdin etting sud.*

Hazrat Alining ushbu hikmatini “**Suls ul-iymoni hayoun va sulsuhu vafoun va sulsuhu saxoun**” ya’ni iymonning uchdan biri, hayo, vafo va saxiylikdir) , degan hikmatini ulug‘ shoir “Nazm ul-javohir” da shunday o’giran:

¹ Ахийлар – XII-XIII асрларда Онадўлида вужудга келган “ахийлик” диний-ижтимоий ҳаракати аъзоси бўлиб уларнинг олий мақсади одамларга хизмат қилиш, муҳтож ва мискинларга ёрдам беришдан иборат бўлган.

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

*Uch qism ila iymong ‘a bino fahm ayla,
Avvalg ‘isini aning hayo fahm ayla,
Ikkinchisini dag ‘i vafo fahm ayla,
Uchunchini bilmasang, saxo fahm ayla.*

Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat”da tariqat ahlining vasf qilar ekan ularga xos bir necha sifatlarni birma-bir aytib, sharhlab o‘tadi-da, saxiyliklariga ham tuxtaladi: “...yana bovujudi bu nav’ adab saxoye mufritdurki, oni bu toifa “bazli mavjud” derlarki, hech nimalarin hech kishidin ayamaslar”. Demak avliyolarga xos bo‘lgan sifatlardan biri bazl – saxoyi mufrit (haddan tashqari saxiylik) bo‘lib, ular hech kimdan hech narsani ayamas ekanlar. Ulug‘ donishmand shoir avliyolarning saxiyliklarini ayrim shayxlar misolida yoki ularning hikmatli so‘zlari orqali ko‘rsatib o‘tadi. Jumladan, U asarida yozadiki:”... Ray mashoyixi debdurlarki, Abulqosimda to‘rt nima jam’ erdiki, o‘zgada yo‘q erdi. Jamol va mol va zuhdi bakamol va saxovati tamom”. Shayx Abulabbos Hamza bin Muhammadning esa” ...vara’da komil va mustajobud da’va” “va azim saxovati bor”ligini ta’kidlaydi. Shayx Abu Abdulloh Solimiydandan so‘rashgan ekan:” Avliyoullohni xalq orasida ne osoru alomot bila tanig‘aylar? “Dedikim: takallunning latofati bila va xulqning xublig‘i bila va yuzning tozalig‘i bila, **nafsnig saxosi** bila va e’tirozning qillati va uzrning qabuli bilaki, harkim, uzr etsa qabul qilg‘ay va shafqat tamomlig‘i bila barcha elga xoh solih va xoh tolih”, deb javob bergan ekan.

Yana bir muhim nuqta shuki, Navoiy saxovatning shartlarini faqat moddiylik bilan bog‘lamaydi, balki ma’naviy taraflariga ko‘ra ham uning belgilarini ko‘rsatib o‘tadi. Tabassum qilish, mayinlik bilan qarash ham saxovatning eng kattasi, eng bebahosidir:

Kular yuz bilan ato, saxo ustiga saxo.

Ulug‘ adibning mazkur tazkirasidan ham saxovatning ma’naviy jihatlari borligini bilib olamiz. Bu borada Shayx Imom Ahmad G‘azzoliyning muridi Shayx Ziyouddin Abunnajib Abdulqohir Suhravardiy “Adab ul-muridin” kitobida shunday degan ekan:”... [agar faqirlik ko‘ngul rizosi bilan bog‘liq bo‘lsa, boylikdan afzalligiga ittifoq qilishgan. Bir kishi «Beruvchi qo‘l oluvchi qo‘ldan yaxshiroqdir» – deb, Payg‘ambar alayhis-salomning so‘zini dalil keltirsa, unga aytiladi: “Beruvchi qo‘l o‘zida borini berish bilan fazilatga ega bo‘ladi. Oluvchi qo‘l borini hosil qilish bilan nuqson topadi”. Ammo saxovat va ehsonning afzalligi faqirlikning fazilatiga dalildir. Kimki, boylik, infoq-ehsonni faqirlikdan afzal desa, go‘yo tavba sharofatidan gunohni toatdan afzal bilgan odamga o‘xshaydi]”.

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mavzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Mutafakkir shoir asarlarida eng saxovat va himmatli inson kim degan savolga ham javob berib o‘tadi. Ma’lumki, Rasululloh Me’roj tunida Alloh taolodan ummat gunohining afv etilishini so‘ragan va maqsadlari hosil bo‘lgan edi. Rasulullohning Allohdan ummat gunohini tilaganliklarini Navoiy eng ulug‘ himmat va saxovat ekanligini teran va samimiy misralar orqali bayon qilib beradi. U garchi na’tlarida bu mavzuga tuxtalgan bo‘lsa ham “Lison ut-tayr”ning “Me’roj” haqidagi bobida mazkur mavzuni nisbatan kengroq va asosliroq ochib beradi:

*Tengri lutfi uzrxohin istadi,
Osiy ummatning gunohin istadi.
Oncha bazl g‘olibu lutfi amim,
Onga lutfi mufritu xulqi karim...*

Ma’lumki, bashariyat, xususan, musulmonlar eng ulug‘, eng axovatli va eng himmatli inson sifatida Muhammad alayhissalomni e’tirof etishadi. Navoiy aynan she’rlarida, xususan “Hayrat ul-abror”dan o‘rin olgan na’tlarida bu haqda yorqinroq va batafsilroq tuxtalib o‘tadi:

*Garchi tijoratqa bo‘lub moyasanj,
Kim qaro tufroqdin oldinda ganj,
Ko‘z tutub el naf‘u basorat anga,
Ummat etib sudu tijorat anga.*

Yana bir narsani ta’kidlash kerakki, Navoiy faqat o‘z asarlari bilan o‘git bermay, o‘zi ham ibratli amallarda bardavom bo‘lgan, umrining so‘nggiga qadar yetim-yesir, beva-bechora, nogironlar, musofirlarga muruvvat ko‘rsatish, sidqidildan beg‘araz yordam berishni umrining mazmuniga aylantirgan. Bu haqda shoir zamondoshlari tomonidan bitilgan Xondamirning “Makorim ul-axloq” kabi risolalarda va o‘zining “Vaqfiya” dek asarlarida ham qayd etiladiki, bunday ma’lumotlar uning ulug‘ Shaxsiyat egasi bo‘lganiga ochiq dalildir. Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, Navoiy katta mol-mulk egasi bo‘lsa-da, ko‘pincha qo‘lidagi mablag‘ni shunday sarf etar ekanki, zakot berishga zarurat bo‘lmay qolarkan. Mashhur Tarixchi Xondamirning yozishicha, “... har doim ezgulik va saxovat dengizi bo‘lgan bu Amir (Navoiy -S.- R.)bilan uchrashish sharafiga muyassar bo‘lgan ulug‘lar (ul Hazratga) muhtoj kishilarning nomlarini aytardilar (31 b), ul hazrat ham (o‘sha muhtoj kishilarning)ehtiyoji darajasidan kelib chiqqan holda o‘z in’om dasturxonidan ularni bahramand etardilar. Shuningdek, (ul Hazrat) otliq holda biror joyga borayotga chog‘larida biror muhtoj kishiga ko‘zlari tushib qolganda unga ehson qilishlari uchun har doim o‘zlarining ishonchli mulozimlaridan biriga kattagina miqdordagi pulni berib qo‘yardilar”.

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

“...Eron va Turonning eng uzoq nuqtalaridan qashshoqlar va muhtojlar (ul Hazratning) olamlarga panoj berguvchi dargohiga iltijo keltirib, sadaqa va ehson dasturxonidan ko‘p bahra olar va rizq-ro‘z topar edilar”.

Xullas, saxovat, infoq va ehson har bir odam va har bir jamiyat uchun eng muhim fazilatlaridan hisoblanib, Navoiy o‘z hayoti hamda asarlari bilan uni targ‘ibu tashviq qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qur’oni karim oyatlari ma’nolarining izohli tarjimasi. Tarjimon Muhammadjon mullo Rustam o‘g‘li. “Munir” nashriyoti. 2022. (Nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi va qavs ichidagi izohlar muallifi Sayfiddin Sayfullah)
2. Abu Zakariyo Yahyo ibn Sharaf Navaviy. Riyoz us-solihin. (Solihlar gulshani). Toshkent. “Sharq” nashriyoti. 2015;
3. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 8-10 jildlar. “G‘afur G‘ulom nomdagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent. 2011.
4. G‘iyosiddin Xondamir. Makorim ul-axloq. “G‘afur G‘ulom omidagi matbuot matbaa–ijodiy uyi”. Toshkent. 2015.
5. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. So‘zboshi va nasriy bayon muallifi A. Hayitmetov. “G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti”. 1989.
6. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Hozirgi o‘zbek tiliga tabdil. “sano standart”. Toshkent. 2018.
7. Abu Abdurahmon Sulamiy. Nafs illatlari va ularning muolajasi. Toshkent. “matbaachi” nashriyoti. 2023.